



INNOVATIVE WORLD
Ilmiy tadqiqotlar markazi

YANGI RENESSANS

ILMIY JURNALI

2026/3



+998335668868



www.innoworld.net

Google Scholar



zenodo





2026

YANGI RENESSANS

ILMIY JURNALI

3-JILD 3-SON



YANGI RENESSANS

ILMIY JURNALI
TO'PLAMI

3 - JILD, 3 - SON
2026



www.innoworld.net

O'ZBEKISTON-2026



Zamonaviy o'qituvchining modeli. Sharqona tarbiya va odobning kommunikativ muloqotga ta'siri.

Umarova Dilbegim G'ulom qizi

Toshkent amaliy fanlar universiteti talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada zamonaviy o'qituvchi modelining asosiy xususiyatlari hamda ta'lim jarayonida kommunikativ muloqotning ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, sharqona tarbiya va odob tamoyillarining o'qituvchi-o'quvchi o'rtasidagi muloqotga ta'siri, uning pedagogic jarayondagi o'rni va tarbiyaviy ahamiyati tahlil qilingan. Maqolada zamonaviy pedagog faoliyatida milliy va sharqona qadriyatlarni uyg'unlantirish zarurati asoslab berilgan. O'qituvchining nutq madaniyati, axloqiy fazilatlari hamda kommunikativ kompetentligining ta'lim sifati va o'quvchilarning shaxs sifatida shakllanishiga ta'siri ilmiy-pedagogik nuqtai nazardan ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: Zamonaviy o'qituvchi, pedagogik model, kommunikativ muloqot, sharqona tarbiya, odob axloq, nutq madaniyati, pedagogic kompetentlik, milliy qadriyatlar, ta'lim sifati, pedagogik muhit.

Kirish. Bugungi globallashuv va raqamli texnologiyalar asrida ta'lim tizimi oldiga yangi talablar qo'yilmoqda. Endilikda o'qituvchi faqat bilim beruvchi emas, balki shaxsni shakllantiruvchi, ijtimoiy faol, ma'naviy yetuk avlodni tarbiyalovchi murabbiydir. Shu jihatdan zamonaviy o'qituvchi modeli nafaqat kasbiy bilim va ko'nikmalarni, balki yuksak axloqiy fazilatlar hamda kommunikativ madaniyatni ham o'zida mujassam etishi zarur.

Sharq mutafakkirlari ta'lim va tarbiya masalasiga alohida e'tibor qaratganlar. Xususan, Abdulla Avloniy ta'kidlaganidek:

“Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot masalasidir.”

Zamonaviy o'qituvchining modeli quyidagi komponentlardan iborat:

1. Kasbiy kompetentlik

- fan sohasini mukammal bilish
- pedagogik texnologiyalarni qo'llay olish
- innovatsion yondashuv

2. Kommunikativ kompetensiya

- samarali muloqot olib borish
- o'quvchini tinglash madaniyati
- empatiya va psixologik sezgirlik

3. Axloqiy-ma'naviy yetuklik

- halollik
- sabr-toqat
- adolat
- mas'uliyat

Bugungi o'qituvchi shaxsida bilim, mahurat va axloq uyg'unlashgandagina ta'lim samaradorligi oshadi.



Sharqona tarbiya va odob tushunchasi: Sharqona tarbiya-bu hurmat, kamtarlik, sabr, mehr-oqibat, kattagina ehtirom va kichikka izzat kabi qadriyatlariga asoslangan tarbiya tizimidir.

Alisher Navoiy shunday deydi: “Tilga e’tibor-elga e’tibor.”

Bu fikr pedagogik muloqotda nutq madaniyatining naqadar muhimligini ko’rsatadi. Shuningdek, Abu Nasr Forobiy komil inson tarbiyasida muomala va axloqning ustuvorligi ta’kidlagan. Sharq pedagogikasida ustozning shaxsiy namuna bo’lishi eng muhim tarbiyaviy vosita hisoblangan.

Sharqona odobning kommunikativ muloqotga ta’siri.

1. Ijobiy psixologik muhit shakllantiradi.

Yumshoq ohang, muloyim muomala o’quvchida ishonch va hurmat tuyg’usini uyg’otadi.

2. Konfliktlarning oldini oladi.

Sharqona sabr va vazminlik o’qituvchiga murakkab vaziyatlarda to’g’ri qaror qabul qilish imkonini beradi

3. Motivatsiyani oshiradi.

O’quvchini kamsitmaslik, rag’batlantiruvchi iboralar ishlatish bilim olishga qiziqishni kuchaytiradi.

4. Shaxsiy namuna orqali tarbiyalaydi.

O’qituvchining kiyinish madaniyati, nutqi va xulqi o’quvchi ongida ideal obrazni shakllantiradi.

Zamonaviylik va milliylik uyg’unligi raqamli texnologiyalar, interaktiv matodlar va innovatsion pedagogic yondashuvlar zamonaviy ta’limning ajralmas qismi bo’lsa-da, ular miliy va sharqona qadriyatlar bilan uyg’unlashgandagina haqiqiy samaraga erishiladi.

Prizident Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek:

“O’qiyuvchisini qadrlagan xalqning obro’-e’tibori yuksak bo’ladi.

Bu fikr zamonaviy o’qituvchining jamiyatdagi mavqeini yanada mustahkamlaydi.

Xulosa. Zamonaviy o’qituvchi modeli bilim, kasbiy mahurat va yuksak axloq uyg’unligiga asoslanadi. Sharqona tarbiya va odob tamolillari pedagogic kommunikatsiyaning samadorligini oshiradi, ijobiy psixologik muhit yaratadi va o’quvchilarning ma’anaviy kamolotiga xizmat qiladi.

Shunday ekan, zamonaviy ta’lim tizimida ”innovatsion bilim + milliy qadriyat + yuksak kommunikativ madaniyat” tamoyili ustuvor yo’nalish bo’lishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

Shavkat Mirziyoyev. Yangi O’zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O’zbekiston nashriyoti, 2021.

Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: O’qituvchi, 1992.

Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016.

Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. – Toshkent: G’afur G’ulom nomidagi nashriyot, 2006.

O’zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2020.

Pedagogika nazariyasi va tarixi. – Toshkent: O’qituvchi nashriyoti, 2015.

Pedagogik mahorat. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2018.

Pedagogika: oliy ta’lim muassasalari uchun darslik. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2017.